


## SMART O'QUV MAQSADLARI YORDAMIDA O'RGANISHNI REJALASHTIRISH

SMART - bu aniq va o'lchanadigan maqsadni shakllantirish, zarur resurslar va unga erishish vaqtini aniqlash imkonini beruvchi usul. SMART ta'lim (texnologiya) maqsadlari bilan o'quv tajribalarini rejalashtirishdir. Mazkur mavzuda ta'lim tizimida Smart- o'quv maqsadlari orqali o'qitishning afzalliklari keng yoritilgan. Ta'lim muassasalari faoliyatida Smart- o'quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o'qitishdagi afzalliklari va dars jarayonida maqsadni aniq qo'yish orqali natijaga erishish, maqsad qo'yish bilan bog'liq muammolarni aniqlash hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va metodlari keng yoritilgan. Shu bilan birga maqsadlarni amalga oshirishni 5 sharti va strategiyasi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.



### **Maqsad va kutilayotgan natijalar:**

SMART o'quv maqsadlari yordamida o'rganishni rejalashtirishni va dars jarayonida samarali qo'llashni bilib oladilar, topshiriqlarni bajarish orqali ko'nikmalar shakllanadi.

O'rganishning asosiy jihatlar:

- Smart o'quv maqsadlari - aniq, o'lchab bo'ladigan, erishish mumkin bo'lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangan va ta'lim tizimidagi afzalliklari keng yoritilgan.
- Ta'lim muassasalari faoliyatida Smart- o'quv maqsadlarining ahamiyati, maqsadi, mazmuni, o'qitishdagi afzalliklari va dars jarayonida maqsadni aniq qo'yish orqali natijaga erishish.
- Maqsad qo'yish bilan bog'liq muammolarni aniqlash hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari, tamoyillari va metodlari o'rganishga imkon beradi.
- SMART o'quv maqsadining uch elementi hamda SMART o'quv maqsadlarini joriy etishning besh usuli.
- Zarur jihozlar: har bir guruh ishi uchun vatman, marker, A4 qog'oz, taqdimot.

| Mashg'ulotni tashkil etish rejasi |                                   |                                                                                                                                               |        |              |
|-----------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|--------------|
| Bosqichlar                        |                                   | Amalga oshirish tartibi                                                                                                                       | Vaqt   | Materiallar  |
| 1.                                | Kirish                            | Yangi mavzuga kirish uchun topshiriq                                                                                                          | 10 min |              |
| 2.<br>2<br>2.                     | Muammolar, uning yechimi va mezon | SMART o'quv maqsadlari yordamida o'rganishni rejalashtirish va dars jarayonida maqsadni aniq qo'yish orqali natijaga erishish; maqsad qo'yish | 25 min | 3 - tarqatma |

|    |                       |                                                                                          |        |                              |
|----|-----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|--------|------------------------------|
|    |                       | bilan bog'liq muammolarni aniqlash;                                                      |        |                              |
| 3. | Amaliy ishlar         | Guruhda mavzu yuzasidan topshiriqlar bajarish                                            | 30 min | 3 - tarqatma                 |
| 4. | Mavzuni mustahkamlash | Mashg'ulot haqida fikr yuritish va SMART o'quv maqsadlari yordamida dars rejasini tuzish | 10 min | Flipchart, oq qog'oz, marker |
| 5. | Natijalar va baholash | Muhokamalar va o'zini o'zi baholash orqali olinadigan natija                             | 5 min  | Og'zaki yoki tarqatmalar     |

Mashg'ulotning borishi:

1. Mashg'ulotni boshlash

Qatnashchilarni mashg'ulotga jalb etish.

Vaqt: 10 min

|                                                                                    |                           |                                                                                    |                          |
|------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------|
|   | 3 ta ijobiy xislat yozing |   | 1ta salbiy xislat yozing |
|  | Orzular                   |  | Maqsadlar                |

Qatnashchilarning javoblari eshitiladi va qo'ilgan maqsadlar To'g'rimib bu maqsadlarni real amalga oshirish mumkinmi? degan savol bilan yangi mavzu o'rganiladi.

Reja:

1. SMART o'quv maqsadlari.
2. SMART o'quv maqsadining uch elementi.
3. SMART o'quv maqsadlarini joriy etishning besh usuli.

### SMART o'quv maqsadlari

Zamonaviy darsning maqsadi aniq o'lchovli bo'lishi kerak, maqsadni dars natijasi bilan aniqlash mumkin. Darsni samarali tashkil etish va o'tkazish, dars ishlanma yaratish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Darsning maqsadlarini aniqlash
2. Dars turiga aniqlik kiritish
3. Maqsadlarga muvofiq mashg'ulot usullarini tanlash
4. Maqsad, vazifa, mazmuni va o'qitish uslubiga mos keladigan dars tuzilishini aniqlash.

Birinchi qoidani batafsilroq ko'rib chiqsak-dars maqsadlarini aniqlash. Ular qanday qilib To'g'ri shakllantirilishi mumkin? Ko'pincha yosh o'qituvchining dars

ishlanmalarida quyidagilarni o'qish mumkin: "O'quvchilarga mavzuni gapirib berish", "Plastmassaning xususiyatlari bilan tanishtirish" va hk. Buni darsning maqsadi deb



SMART dars rejasi samarali ta'lim uchun muhimdir. SMART degani aniq, o'lchab bo'ladigan, erishish mumkin bo'lgan, dolzarb va vaqt bilan chegaralangan degan ma'noni anglatadi. Keling, har bir elementni biologiya misoli orqali ko'rib chiqamiz.

hisoblash mumkinmi? Yo'q!

O'qituvchi faoliyatining maqsadi - uning bilimga intilishi, o'quvchini tayyorlash, o'qitish va rivojlantirish darajasini o'zgartirish To'g'risida ongli ravishda qaror qabul qilish, shuning uchun darsning maqsadlari iloji boricha aniqroq bo'lishi kerak.

Muvofiqlikka yo'naltirilgan maqsadlarni belgilashning bir yo'li – SMART- mezonlarini qo'llashdir. SMART «To'g'ri» maqsadlarni belgilash uchun eng muhim besh mezonni eslab qolishga yordam beradigan abbreviaturadir (beshta inglizcha so'zlarning birinchi harfiga asoslangan):

**M**  
**A**  
**R**  
**T**

**SPECIFIC** - ANIQLIK (o'ziga xoslik, maxsus)

**MEASURABLE** - O'LCHAMGA EGA

**ATTAINABLE** - ERISHSA BO'LADIGAN

**RELEVANT** - DOLZARB

**TIME FRAME** - VAQT BILAN CHEGARALANGAN

Aniqlik (o'ziga xoslik, maxsus) - Birinchi element aniqlikdir. Maqsad aniq qilib belgilab berilgan bo'lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: nima qilish kerak? Kim javobgar? Qanday talablar va cheklovlar mavjud?

Siz o'quvchilarga yurakning qonni butun tana bo'ylab qanday tashishini tushuntirishni xohlaysiz? Bu maqsad juda aniq, chunki u yurakning qonni butun tanaga haydash vazifasiga qaratilgan. Hech qanday noaniqlik yo'q; maqsad oc va aniq belgilangan. Misol uchun, darsingiz yurakning kameralari va qon aylanish doirasini o'rgatishga qaratilgan bo'lishi mumkin, bu har bir bosqichning tafsilotlarini tushunishlariga qaratilgan.

O'lchamga ega – Keyingi element o'lchanadigan. Maqsad taraqqiyotni kuzatish va muvaffaqiyatni aniqlash uchun miqdoriy yoki o'lchanadigan mezonlarga ega

bo'lishi kerak. U quyidagi savollarga javob berishi kerak: qancha? Necha dona? Qachon bajarilganini qanday bilsam bo'ladi?

O'quvchilar darsni tushunganligini bilish uchun, siz ularning bilimlarini qanday tekshirishingiz mumkin?. Siz onlayn testlar, shakllantiruvchi baholashlar yoki sinfdagi faoliyatlar orqali ularning bilimlarini baholashingiz mumkin. Misol uchun, siz o'quvchilardan yurak qismlarini belgilash yoki qon oqimi jarayonini tasvirlashni so'raydigan onlayn test tayyorlashingiz mumkin. Yoki sinfdagi faoliyatda o'quvchilar rekvizitlardan foydalanib qon aylanish tizimini modellashtirishlari mumkin, bu ularning tushunishini o'lchashning bir ko'rsatkichi bo'ladi.

Erishsa bo'ladigan - Erishish mumkin bo'lganlik - uchinchi komponentdir. Maqsad real va vaqt, resurslar va ko'nikmalar kabi cheklovlar doirasida erishish mumkin bo'lishi kerak. Qanday amallar qilinishi zarur? Maqsadga erishish shartlari qanday?

Dars maqsadlari realistik va sinf muhitining cheklovlari doirasida amalga oshirilishi kerak. Bu mavjud yoki oson yaratiladigan materiallardan foydalanishni anglatadi. Misol uchun, siz yurakning funksiyalarini tushuntirish uchun diagrammalar, modellardan yoki onlayn interaktiv simulyatsiyalardan foydalanishingiz mumkin. O'quvchilar haqiqatdan ham tushunishi mumkin bo'lgan maqsadlarni belgilash muhimdir, masalan, yurakning asosiy ishlash mexanizmini tushunish yurak hujayralarining biokimyoviy jarayonlari kabi murakkab mavzulardan ko'ra osonroqdir.

Dolzarb -TO'rtinchi element dolzarblikdir. Maqsad tashkilot yoki loyihaning umumiy maqsadlari va strategiyalariga mos kelishi kerak. Bu foydali bo'lishi va kerakli natijalarga hissa qo'shishi kerak.

Dars maqsadi o'quv dasturi va o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiq mazmunli bo'lishi kerak. Yurakning funktsiyasini tushunish juda muhim, chunki u inson anatomiyasining muhim qismidir. Bu bilim nafaqat biologiya uchun, balki umumiy sog'liq ta'limi uchun ham dolzarbdir. Misol uchun, yurak qanday ishlashini tushunish o'quvchilarga yurak-qon tomir funksiyasi haqida ongli qarorlar qabul qilishga yordam beradi, shuning uchun darsning haqiqiy hayotdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Vaqt bilan chegaralangan - Oxirgi element vaqt bilan chegaralanganlikni anglatadi, ya'ni dars maqsadlarini amalga oshirish uchun aniq muddat belgilanishi kerak. Maqsad muayyan muddat yoki yakunlash muddatiga ega bo'lishi kerak. Bu shoshilinchlik tuyg'usini yaratishga yordam beradi va harakatlarni birinchi o'ringa qo'yadi. Masalan, yurak mavzusini batafsil yoritish uchun ikki hafta etarli bo'lishi mumkin deb qaror qilishingiz mumkin. Bu davr bir nechta darslar, testlar va ko'rib chiqish seanslarini o'tkazishga imkon beradi, bu esa TO'liq tushunishni ta'minlaydi.

Aniq vaqt oralig'ini belgilash dars tuzilishini rejalashtirishda yordam beradi va maqsadlar belgilangan muddat ichida bajarilishini ta'minlaydi.

SMART o'quv maqsadlarining uchta elementi bor:

1. Namoyish - o'quvchi nima qila olishi va/yoki tayyorlay olishi kutilmoqda?
2. (Muvaffaqiyat) mezonlar - maqbul ishlash mezonlari qanday?
3. Shartlar - qanday sharoitlarda ishlash sodir bo'ladi.

SMART o'quv maqsadlaridan foydalanilganda uning har bir o'rganish aspekti hisobga olinishi lozim.

Masalan, "Sog'lom ovqatlanish" mavzusida o'quvchi vazn ketkazishni o'rganishni maqsad qilib qo'yadi. Har bir o'quvchi qancha vazn ketkazmoqchi ekanligini o'lchashni iloji yo'q, bunga erishib bo'lmaydi, bu yerda muddat ham ko'rsatilmagan. Shuning uchun o'rganishning boshqacharoq usulini



ko'rib chiqamiz, ya'ni bir oy ichida 5 kg vazn yo'qotishni maqsad qilib qo'yamiz va o'quvchi dars oxirida vazn ketkazishning 3ta usulini bilib olishi kerak. Bu topshiriq SMART o'quv maqsadlariga misol bo'la oladi.

Namoyish – vazn yo'qotish, ya'ni biz har bir o'quvchiga vazn yo'qotishni maqsad qilib qo'ydik.

(Muvaffaqiyat) mezonlar –o'quvchi bir oy ichida 5 kg yo'qotishi kerak.

Shartlar – o'quvchi parxez tutishi va sport bilan shug'ullanishi kerak.

Darsda maqsadimiz, yondashuvimiz asosan o'quvchilarni o'rganishiga qaratilgan bo'lishi lozim, faqat bilim berilsa o'quvchi darsga qiziqmaydi.



### Guruh ishi.

**"Sog'lom ovqatlanish" mavzusida biz tet-tez iste'mol qiladigan tuxumga doir misollar keltiramiz:**

**1-guruh.** Biz tez-tez iste'mol qiladigan tuxumlarning kamida uch turini ro'yhatini tuzing. Tuxum turlari: tovuq, bedana, o'rdak tuxumlari. Bu yerda SMART maqsadlarining aspektlari :

Holat-ro'yhat tuzish

Mezon –3ta turdagi tuxumni yozish

Ish harakat - tez-tez yeyiladigan tuxumlar





**2-guruh.** Tovuq tuxumining kamida uch xil tuzilishini farqlang.

Bu yerda SMART maqsadlarining aspektlari :

Holat - farqlash

Mezon – tovuq tuxumining 3xil tuzilishi

Ish harakat-tovuq tuxumining qobig'i

**3-guruh.** Tuxumlarni bir hafta davomida saqlashda ularning eskirmasligini ta'minlashning kamida uchta usulini taklif qiling.

Bu yerda SMART maqsadlarining aspektlari :

Holat - taklif qilish

Mezon – eskirmasligini ta'minlashning kamida uchta usulini

Ish harakat - bir hafta davomida eskirmasligini ta'minlash

**4-guruh.** Pazandachilikda tuxumning olti xil ishlatilishini tavsiflang.

Holat - pazandachilikda

Mezon – tuxumning olti xil ishlatilishi

Ish harakat - tavsiflash

**5-misol.** Tuxum qovurilganda ikkita o'zgarishni tushuntiring.

Holat- ikkita o'zgarishni

Mezon –tuxum qovurilganda

Ish harakat - tushuntirish



Har bir topshiriqni bajarishda vaqt aniq qilib belgilangan bo'ladi, masalan 15-avgustgacha.



**Mustahkamlash**

**SMART o'quv maqsadlarini joriy etishning 5 ta usuli.**

1. Dars boshlanishida o'qituvchi SMART modelidan foydalanadi va bu haqida ma'lumot beradi, uni o'tiladigan mavzuda qanday qo'llanilishini tushuntirib beradi.

2. Dars davomida muayyan vaqtda qanday maqsadlarga erishganligi haqida ma'lumot berib boriladi.
3. KWLSdagi "Bilishni hohlayman" savollaridan foydalanganda "Bilaman-bilmoqchiman-bilib oldim- yana o'rganmoqchiman" degan savollarga SMART modeli asosida ma'lumot beradi.
4. LISCni bosqichma-bosqich muvaffaqiyat mezonlari asosida o'quv maqsadlari bilan o'rganish.
5. Dars yakunida o'rganilgan narsalar haqida ma'lumot beradi va SMART o'quv maqsadlarini o'rganganligi haqida belgilab qo'yadi.



### **Xulosa**

SMART metodi sizga ma'lum chegaradan chiqib ketmagan holatda maqsadga erishishda zarur bo'lgan bosqichlardan o'tib borishingizga yordam beradi. Shuningdek bu metod kerakli resurslar, erishayotgan natijalar va sarflanayotgan vaqt ustidan nazorat qilish imkoniyatini beradi. Maqsadlaringizga SMART usulda erishing.



### **Nazorat savollari**

1. SMART maqsadlarning o'ziga xosligi nimada?
2. Mavzu uchun tanlagan maqsadingiz bilan qanday natijaga erishmoqchisiz?
3. Nima uchun SMART maqsad ko'zlangan natijaga erishishga yordam beradi?